

Karimov Islom Abdug'aniyevich



Karimov Islom Abdug'aniyevich



(1938 yil 30 yanvar, Samarqand shahri – 2016 yil 2 sentyabr, Toshkent)

Davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti. O'zbekiston qahramoni (1994). 1960 yili O'rta Osiyo politexnika instituti, 1967 yilda esa Toshkent xalq xo'jaligi institutini tugatgan. 1960 yildan "Tashselmash" zavodida avval master yordamchisi, so'ng master, texnolog, 1961-1966 yillarda V. P. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida avval muhandis, so'ngra yetakchi muhandis-konstruktor bo'lib ishladi. 1966-1983 yillarda O'zbekiston Davlat Plan komitetida fan va yangi texnikani joriy etish bo'limining bosh mutaxassisligidan respublika Davlat Plan komiteti Raisining birinchi o'rinbosarigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 1983 yildan O'zbekiston SSR Moliya vaziri, 1986 yilda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisining o'rinbosari – respublika Davlat plan komitetining raisi. 1986 yil dekabridan O'zbekiston Kompartiyasi Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. 1989 yil iyunida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komitetining birinchi kotibi, 1990 yil 24-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi. 1991 yil 29-dekabrda birinchi bor muqobillik asosida tashkil etilgan umumxalq saylovida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

Islom Karimov 1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi. 1995 yil 26-

martda umumxalq Referendumida Karimovning Prezidentlik vakolati 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirildi. 2000 yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Ushbu saylovda Islom Abdug'aniyevich Karimov yana O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89 va 93-moddalariga ko'ra, Islom Karimov ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondonidir.

1994 yili Islom Karimovga O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi unvoni berilgan, shuning bilan, iqtisod, fan va ta'limni rivojlanirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun o'ndan ortiq xorijiy mamlakatlar universiteti va akademiyalarining faxriy fan doktori, professori hamda akademligiga saylangan.

Prezident I.A.Karimov O'zbekistonda davlat tuzumini mustahkamlashda, mamlakatning iqtisodiy, madaniy rivojlanishida, Respublikaning ichki va tashqi siyosatida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda jonbozlik ko'rsatgani uchun **"O'zbekiston Qahramoni"** faxriy unvoni (1994 yil), **"Mustaqillik"** (1996 yil), **"Amir Temur"** (1998 yil) ordenlari bilan taqdirlangan. I.A.Karimov xalqaro munosabatlarni rivojlantirishdagi salmoqli hissasi uchun bir qator xorijiy davlatlarning va nufuzli xalqaro tashkilotlarning orden va medallari bilan mukofotlangan.

I.A.Karimovning *"O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li"* (1992), *"Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag"* (1993), *"Bizdan ozod va obod Vatan qolsin"* (1994), *"Istiqloq va ma'naviyat"* (1994), *"Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir"* (1995), *"O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari"* (1997), *"Barkamol avlod orzusi"* (1998), *"Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari"* (1998), *"Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"* (1998), *"Olloh qalbimizda, yuragimizda"* (1999), *"Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz"* (2000), *"Tinchlik uchun kurashmoq kerak"* (2001), *"O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari"* (2002) va boshqa asarlarida iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning dolzarb masalalari tadqiq qilingan, O'zbekistonning ichki va tashqi siyosati ilmiy asoslab berilgan, hozirgi va istiqboldagi vazifalar ko'rsatib o'tilgan. Uning eng muhim asarlari ingliz, fransuz, ispan, nemis, hind, xitoy, arab kabi o'nlab turli xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellarda bir necha bor nashr qilingan. Respublikamizda I.A.Karimov asarlarining 11 jildlik to'plami quyidagi nomlarda nashr qilingan:

1-jild. **O'zbekiston: Milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura.** – T.: O'zbekiston. 1996.

2-jild. **Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.** – T.: O'zbekiston. 1996.

3-jild. **Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.** – T.: O'zbekiston. 1996.

4-jild. **Bunyodkorlik yo'lidan.** – T.: O'zbekiston. 1996.

5-jild. **Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi.** – T.: O'zbekiston. 1997.

6-jild. **Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida.** – T.: O'zbekiston. 1998.

7-jild. **Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.** – T.: O'zbekiston. 1999.

8-jild. **Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.** – T.: O'zbekiston. 2000.

9-jild. **Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.** – T.: O'zbekiston. 2001.

10-jild. **Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.** – T.: O'zbekiston. 2002.

11-jild. **Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li.** – T.: O'zbekiston. 2003.

2023-12-20 15:18:18